

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.I.Nurmatova**

Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi ..... 107

**D.B.Mahometova**

Use of information technologies in education..... 112

**M.Norinov**

Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi..... 115

**G.T.Hojikarimova**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ..... 119

**X.M.Jo'rayev**

Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari ..... 123

**N.B.Odilxo'jazoda**

Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 128

**B.T.Tojibayev, S.S.Isokov**

Globallashuv kontekstida – ta'lim ..... 132

**D.Q.Oxunova**

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari..... 136

**N.E.Yuldasheva**

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari ..... 140

**B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova**

Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish..... 144

---

**FALSAFA****Б.С.Ганиев**

Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане ..... 150

**M.D.Pardaeva**

Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati..... 156

**Z.P.Nadirova**

Intuitive cognition as a synergistic process..... 161

**X.X.Raxmatova**

Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot ..... 165

**Z.A.Akhmedova**

Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili..... 170

**B.X.Karimov**

Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini..... 175

**L.M.Karimova**

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari ..... 180

**M.M.Gulamova**

Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati..... 185

**O.T.Sharipova**

Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida ..... 189

**Sh.B.Sattorova**

Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos taddiqi..... 194

**B.X.Hamdamov**

Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari..... 200

**TALABALARDA OILA IQTISODIGA OID KOMPETENSIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATDAN TADQIQ QILINISHI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ СЕМЕЙНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ**

**A THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH OF THE IMPROVEMENT OF FAMILY  
ECONOMY COMPETENCES IN STUDENTS**

**Nurmatova Maftuna Ilxamovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Yoshlarning iqtisodiy ong va madaniyati darajasining yuqoriligi jamiyatda moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oldini olishga qo'yilgan muhim qadam bo'la oladi. Maqolada pedagogik ta'lif jarayonida oliy ta'lif talabalarining oila iqtisodiga oid kompetensiyalarini takomillashtirishning jahon tajribasi hamda mahalliy olimlar tadqiqotlari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*Высокий уровень экономического сознания и культуры молодежи может стать важным шагом в предотвращении финансово-экономического кризиса в обществе. В статье анализируется мировой опыт, а также исследования отечественных ученых в совершенствовании компетенций по семейной экономике у студентов вузов в процессе педагогического образования.*

**Abstract**

*The high level of economic awareness and culture of young people can be an important step towards the prevention of a financial and economic crisis in society. The article analyzes the world experience of improving the family economics competencies of higher education students in the process of pedagogical education, as well as the researches of local scientists.*

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, oila iqtisodiyoti, iqtisodiy kompetentsiya, iqtisodiy sotsializatsiya, integratsiya, orientatsiya.

**Ключевые слова:** компетентность, семейная экономика, экономическая компетентность, экономическая социализация, интеграция, ориентация

**Key words:** competence, family economy, economic competence, economic socialization, integration, orientation

**KIRISH**

Jahon tajribasida shaxsning iqtisodiy ong va madaniyatini shakllantirish jahon iqtisodiyoti tizimida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yuzaga kelgan hamda uning salbiy ta'siri butunlay bartaraf etilmagan sharoitda o'ziga xos ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Zero, jahon iqtisodiyoti shunday tizimga egaki, bir mamlakatda ro'y bergen moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshqa davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Yoshlar tomonidan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tub mohiyatini, bozor iqtisodiyoti tamoyillari mazmunini yetarli darajada anglash, ro'y bergen jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish zaruriyatini tushuna olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fuqarolarning iqtisodiy ong va madaniyati darajasining yuqoriligi jamiyatda moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oldini olishga qo'yilgan muhim qadam bo'la oladi.

Ayni vaqtida respublika miqyosida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jamiyat iqtisodiy rivojiga ko'rsatuvchi salbiy ta'sirining oldini olish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday chora-tadbirlardan biri uzlusiz ta'lif tizimining turli bosqichlari, xususan, OTMda o'qitish xizmatlarining asosiy foydalanuvchisi bo'lgan o'quvchi va talabalarni iqtisodiy bilim asoslari, oila iqtisodiga oid tizimli ma'lumotlarni berish, ularda iqtisodiy xarakterdag'i kompetensiyalarni rivojlantirish sanaladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ilmiy-pedagogik tajribaning "poydevori" bo'lgan asoslovchi tajribada pedagogik ta'lif jarayonida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariya va amaliyotdagi holati o'rganildi.

O'rganish chog'ida uch muhim omil bo'yicha muayyan pedagogik vazifalarni bajarish asosida amalga oshirildi:

I. Omillar: mavzuga tegishli bosma adabiyot yoki elektron manbalarning mavjudligi; tadqiqot muammosi yoki yondosh muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi; talabalarning oila iqtisodiga oid kompetensiyalarga egaligi.

II. Pedagogik vazifalar: pedagogik ta'lif jarayonida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishga oid bosma adabiyot yoki elektron manbalarning mavjudligini tahlil qilish; tegishli yoki yondosh yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga doir mavjud vaziyatni tadqiq etish; talabalarning oila iqtisodiga oid kompetensiyalarga egaligini sinov ishlariiga respondentlarni jalg qilish asosida baholash.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ayni o'rinda pedagogik ta'lif jarayonida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy-amaliyotdagi holati yuqorida ko'rsatilgan omillar va vazifalarga muvofiq tahlil qilinadi.

I. Pedagogik ta'lif jarayonida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishga oid bosma adabiyot yoki elektron manbalarning mavjudligini tahlil qilish. So'nggi chorak asr mobaynida yaqin xorijiy mamlakatlarda A.P.Vyatkin, T.V.Drobisheva, J.A.Jilina, Ye.N.Zemlyanskaya, A.S.Prutchenkov, B.A.Rayzberg, kabi olimlar tomonidan iqtisodiy ta'lif mazmuni, asosiy bosqichlari va metodikasi, shaxsnинг iqtisodiy ongi, tafakkuri madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid bosma hamda elektron shaklda turkum ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar pedagogik jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi. Ushbu adabiyot va manbalar pedagogik, psixologiya, metodika yo'naliishlarida bo'lib, yosh qamrovi jihatidan mакtabgacha ta'lif tashkilotlaridan boshlab, OTMlarni qamrab olgan. [1, 56 b.]

O'zbekistonda N.G.Muminov, M.Ortiqova, S.Saidov kabilarning ishlari iqtisodiy ta'lif va tarbiyani tashkil etishda foydalanimoqda.

II. Tegishli yoki yondosh yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga doir mavjud vaziyatni tadqiq etish. Pedagogik yo'naliishda bir guruh tadqiqotchilar bevosita shaxs, jumladan, o'quvchi hamda talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish, iqtisodiy tarbiyani tashkil etish orqali ularda iqtisodiy faoliyat ko'nikmalari, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning pedagog asoslarini o'rganishga e'tibor qaratgan.

Uzoq xorij mamlakatlarda esa o'tgan asrning 70-yillardan boshlab, yosh avlod ongida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish, ularni iqtisodiy faoliyatga tayyorlash, shaxs qiyofasida namoyon bo'ladigan iqtisodiy madaniyatga xos sifatlar mavzusi kabi ilmiy tadqiqotchilarni ishlarida ko'p tomonlama o'rganigan.

Kober Nensi (Kober Nancy), Rentner Dayan Stark (Rentner Diane Stark)ning e'tirofiga ko'ra, AQSHda ikkinchi sanoat inqilobi iqtisodiy ta'lifni joriy qilish va rivojlantirishga bo'lgan talabni yuzaga keltirdi. Buning natijasida ta'lif oluvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma, malakalarga aylantirish ehtiyoji kuchaydi. [3, 8 b.]

AQSHning davlat ta'lifi tarixida davlatga qarashli maktablar ko'plab funksiyalarni bajargan. Ana shunday funksiyalardan biri o'quvchini iqtisodiy faoliyatga tayyorlash sanaladi. Ushbu funksiyani bajarishda umumiyo'rta ta'lif maktablarini iqtisodiy ta'lif dasturlarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'quv dasturlarining mazmuni nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarning integratsiyasiga asoslangan. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlar bevosita ularda turli yo'naliishdagi kishilik munosabatlari jarayonida amaliy ko'nikma, malaka va kichik tajribaning hosil bo'lishiga xizmat qilgan.

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy ta'lifi to'g'risida so'z yuritar ekan, Ran Abramiskiy (Ran Abramitzky) bu turdag'i o'qitish ikki asosiy mavzu doirasiga jamlangan bilimlarni targ'ib qilishga yo'nalgaligini aytib o'tadi. Ular:

1) barcha bosqichlarda faoliyat yuritadigan ta'lif muassasalarida iqtisodiy ta'lifni tashkil qilishda foydalanimadigan iqtisodiy xarakterdagi dasturlar, materiallar, pedagogik metodlarning holatini tahlil qilish va jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda ularni mazmunan takomillashtirish;

2) iqtisodiy ta'lifda qo'llaniladigan muqobil metodlarning samaradorligini ta'minlash, turli ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy savodxonligi darajasini oshirish, shuningdek, shaxs, ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy savodxonligini darajasini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, ularning ta'sirchanligini o'rganish yo'lida ilmiy tadqiqotlarni olib borish. [4, 9 b.]

## PEDAGOGIKA

Rut Shuler (Ruth Schüler) iqtisodiy o'qitishni iqtisodiy ta'limgan farqlanishini aytadi. Uning fikricha, iqtisodiy o'qitish shaxsga iqtisodiy bilim asoslari to'g'risida ma'lumot berish, ularda ijtimoiy sub'yektlar o'rtasida kechadigan iqtisodiy xarakterdagi aloqalarning yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi, iqtisodiy ta'lim esa bevosita shaxsni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlaydi va bu jarayonning samaradorligi, amaliy natijasi ta'lim muassasasining iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu o'rinda Rut Shuler ta'lim muassasasining iqtisodiyot ob'yektlari – ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish shahobchalari, fermer xo'jaliklari, kichik tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro aloqadorlik, hamkorlikka erisha olish layoqatiga egaligini inobatga olgan. Binobarin, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda har qanday yo'nalishdagi ta'lim bevosita shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi ob'yektlar, jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

Shu bilan birga Rut Shuler iqtisodiy ta'limgan jarayon, fan hamda mahsulot, deya ta'riflaydi. Unga ko'ra iqtisodiy ta'lim:

- jarayon sifatida ta'lim oluvchilar tomonidan iqtisodiy ko'nikma, malaka va qadriyatlarni o'zlashtirishga, "Iqtisodiyot" fani o'qituvchilari yoki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga, ijtimoiy subyektlar o'rtasida ularning hayot darajasini yaxshilash, nufuzli ishlab chiqarish ob'yektlari faoliyatida qatnasha olish huquqini beruvchi ahamiyatli iqtisodiy axborotlarni tarqatish imkon beradigan muayyan davrni o'z ichiga oladi;

- fan sifatida ilmiy jihatdan asoslanib, muayyan tizimga keltirilgan bilimlar majmuiga ega;

- mahsulot sifatida iqtisodiy ta'lim ish beruvchilar va umuman, yaxlit holda jamiyatning manfaatlari uchun xizmat qiluvchi qadriyatlar, malakalar, qiziqishlarni hosil qiladigan g'oyalarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.[5. 137 b.]

L.S.Blyaxman iqtisodiy tafakkur "iqtisodiy munosabatlarning inson ongida aks etishi, ular tomonidan iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish va ularning ongida iqtisodiy faoliyatda namoyon bo'lishi jarayoni" ekanligini e'tiborga qaratar ekan, iqtisodiy tafakkurni tarkibiy tuzilmasini quyidagi uch asosiy qismlarga ajratadi: iqtisodiy faoliyat mohiyatini anglash; ijtimoiy ishlab chiqarishning aks etishi, turlari va qonuniyatları to'g'risida umumlashgan ma'lumotlarni o'zlashtirish; nazariy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishi, iqtisodiy tafakkurni faoliyatiga tatbiq qilish.[6, 45 b.]

Yaqin xorij mamlakatlarida shaxsda iqtisodiy ong, tafakkur va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish muammosi o'tgan asrning so'nggi o'n yilligida keng ko'lamma tadqiq qilina boshlandi. Buning asosiy sababi sobiq Ittifoq tizimining yemirilishi, uning negizida taraqqiyot va rivojlanishning istiqbol yo'li sifatida bozor munosabatlarini tanlagan mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.

Tadqiqotchilar – A.V.Boyarinseva, O.S.Deyneka, Ye.V.Popova, I.A.Sasova kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanish uchun ob'yekt sifatida turli yosh toifasidagi shaxslarga iqtisodiy bilim berish asosida ularda iqtisodiy madaniyat sifatlarini shakllantirish, bosqichma-bosqich rivojlantirish muammosi yoritilgan.

XX asrning dastlabki o'n yilliklarida uzoq va yaqin xorij mamlakatlarida shaxsni iqtisodiy ijtimoiylashtirish tendensiyasi shakllandi. "Iqtisodiy ijtimoiylashuv" tushunchasi dastlab amerikalik tadqiqotchilar S.Kamings (S.Cummings), D.Tibl (D.Taebel), B.G.Stasi (B.G.Stacey) tomonidan "o'zida individualizm, shaxsiy mulk, davlat tomonidan o'matilgan cheklolar va nihoyat, iqtisodiy hayot bozor vositasida tartibga solinadigan Amerika iqtisodiy hayotida individ tomonidan iqtisodiy xulq-atvorga ega bo'lishda ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilish jarayoni" sifatida izohlangan. [7, ]

T.V.Bazaykina, T.P.Grass, O.S.Deyneka, A.S.Yevdokimova, Ye.N.Zemlyanskaya, Ye.V.Kozlova, A.Ye.Krasheninnikova, L.I.Kundozerova, S.M.Milinis, V.I.Petrişyev, N.N.Pomuran, A.N.Rostovsev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy ijtimoiylashuv "shaxsning iqtisodiyashgan jamiyatda uning to'laqonli a'zosiga aylanish jarayoni" deya talqin qilingan. G.V.Semya bu jarayonining nazariy tafsifini quyidagicha bayon qiladi: "individning xo'jalik faoliyati cheklangan ijtimoiy makon mohiyatini anglashi, iqtisodiy jarayonlar va hodisalar, ularning individ tomonidan tashkil qilingan muayyan iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati shakllarida aks etishi orqali iqtisodiy to'g'risidagi qarashlar, shuningdek, shaxs iqtisodiy xulqining shakllanishi". [7, 198 b.]

"Iqtisodiy ijtimoiylashuv" mazmunan "iqtisodiy moslashuv" tushunchasiga mos keladi. Biroq, ayrim tadqiqotchilar bu ikki terminni mustaqil tushunchalar deb e'tirof qilgan holda iqtisodiy moslashuv iqtisodiy ijtimoiylashuvning negizi, asosi deb hisoblaydi. Xususan, "iqtisodiy-psixologik moslashuv – shaxsning bozorga egalik qilish subyekti (ishlab chiqaruvchi va iste'molchi,

mahsulotlar almashinuvi va mehnat taqsimoti, iqtisodiy siyosat obyekti) sifatidagi iqtisodiy ijtimoiylashuvning tarkibiy qismi". Shu bilan birga izlanuvchilar shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashganligini uning pullar (moddiy mablag')ga egaligi, shaxsiy mulkka egaligi, ijtimoiy tabaqalashuvda o'rta va yuqori darajani egallagani, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga samarali kirisha olish qobiliyatiga egaligi bilan belgilaydi.[8, 159 b.]

O'zbekistonda iqtisodiy ta'lif Konsepsiyasini ishlab chiqish, iqtisodiy ta'lif tizimini shakllantirish, ta'lif oluvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarni samarali o'zlashtirish, uning negizida iqtisodiy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi S.Boboqulov, D.U.Djurayev, N.A.Kamolova, G'.A.Nabihev, Sh.A.Saipnazarov, B.B.Sobirov, X.A. Umarova, N.I.Xasanxonova, G.X.Eshmurodova kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, umumiy o'rta ta'lif maktablarining o'quvchilari misolida shaxs iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish muammosini o'rgangan G.X.Eshmurodova tayanch tushunchani quyidagicha sharhlaydi: "o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish – ta'lif va amaliy faoliyatga faol jalb etish orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlarni tadrijiy tarzda mustahkamlash, yanada boyitish asosida mavjud amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishiga ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat".[9, 26 b.] Muallifning fikricha, mazkur faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega har qanday balog'atga yetgan shaxs bilimdon iste'molchi; ehtiyyotkor jamg'aruvchi; uddaburon, tadbirkor sarmoyador; global iqtisodiyot ishtirokchisi; savdo-sotiq, oila xo'jaligi, ijtimoiy boshqaruvi, moddiy boyliklarga nisbatan munosabatda tadbirli shaxs bo'lib yetisha olishi zarur.

G.X.Eshmurodovaning nazariy qarashlarini yanada boyitib, tadqiqotchi G'.A.Nabihev o'quvchilarning iqtisodiy munosabatlarga kirishga tayyorligini belgilovchi sifatlar turkumini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Ushbu sifatlar quyidagilardir: iqtisodiy bilimdonlik; oilaviy tadbirkorlik faoliyati yoki muktab biznes loyihibarida faol ishtirok etish; mehnat va ishlab chiqarish malakalariga egalik; iqtisodiy kompetentlik sifatlari – aniq maqsad va harakat rejasiga egalik, tashabbuskorlik, tadbirlilik, kreativlik, iqtisodiy masalalarda vaziyatni to'g'ri baholay olish, turli iqtisodiy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, raqobatga bardoshlilik, muvaffaqiyatsizliklar oldida tushkunlikka tushmaslik, tavakkal qilishga tayyorlik kabilarga egalik; ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonidagi faollik.[10, 23 b.]

Nazariy tahlil natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. AQSH va Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida ro'y bergan ikkinchi sanoat inqilobi bir guruh tadqiqotchilarini ishlab chiqarishni keskin rivojlantirish, jamiyatda bozor munosabatlarini shakllantirish masalasini dolzarblashuviga olib keldi.

2. Iqtisodiy sohalarda yuzaga kelgan va tobora chuqurlashib borayotgan raqobatga bardoshli shaxsni tarbiyalash muhim ijtimoiy masalaga aylandi.

3. AQSH va Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy ta'lifning sifati va samaradorligi puxta asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish asosida ta'minlandi.

4. Tegishli yo'nalishdagi o'quv dasturlarining amaliy qiymati ularning mobilligi bilan belgilandi. Ushbu o'quv dasturlari o'z mazmuniga milliy jamiyatlarda kechayotgan shiddatli ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarga oid bilimlarni tezkor singdira olishi, ta'lif oluvchilarni ijtimoiy hayotga va kasbiy faoliyatga ular asosida tayyorlashga xizmat qilishi zarur edi.

5. "Iqtisodiy ijtimoiylashuv" tushunchasi dastlab o'tgan asrning 60-70-yillarda amerikalik tadqiqotchilar S.Kamings (S.Cummings), D.Tibl (D.Taebel), B.G.Stasi (B.G.Stacey) tomonidan til iste'moliga kiritilgan bo'lib, shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvi individualizm, shaxsiy mulkka egalik, davlat tomonidan o'rnatilgan cheklovlarining mavjudligi, iqtisodiy hayotning bozor vositasida tartibga solinishini ifodalovchi jarayon sifatida talqin qilinadi.

6. O'zbekiston sharoitida uzlusiz ta'lifning turli bosqichlarida ta'lif oluvchilarni iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarga ega bo'lishiga imkon beradigan pedagogik shart-sharoit yaratilgan bo'lsa-da, biroq, ularda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish muammosi kam o'rganilgan.

7. Mazkur holat OTMda pedagogik turkum fanlari bilan tegishli – "Tadbirkorlik asoslari", "Texnologiya", "Amaliy san'at", matematika hamda huquq fanlari o'rtasida o'zaro integratsiyani qaror toptirish asosida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi.

## XULOSA

Oilaning xo'jalik-iqtisodiy faoliyatini yuritish uning a'zolaridan iqtisodiy kompetensiyalariga ega bo'lishni taqozo qiladi. Bu kabi kompetensiyalar sirasida oila byudjetini shakllantirish, uy

## PEDAGOGIKA

xo'jaligini yuritish, oilaviy mehnat taqsimotida qatnashish, oila iste'molini tartibga solish, oila a'zolarining umumiy va shaxsiy harajatlarini nazorat qilish, oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy iste'mol buyumlari, mulkni saqlash hamda tasarruf qilishga oqilona munosabatda bo'lisch, iste'molchi sifatida o'z huquq va majburiyatlarini bilish, ularga amal qilish, oilaviy tadbirdorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, uy xo'jaligida qurish, ta'mirlash, saqlash kabilalar muhim ahamiyatga ega. Oilaning har bir a'zosi ushbu kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik ta'limga jarayonida talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirish aniq maqsad asosida muayyan muddat – bakalavriat yoki magistratura davri davomida izchil, uzlusiz, tizimli tashkil qilinadigan jarayon sanaladi. Pedagogik turkum fanlarining pedagoglarining nafaqat mutaxassislik fanlaridan, balki iqtisodiy bilimlar asoslari, shuningdek, oila iqtisodini samarali tashkil etish borasidagi bilimlarga ega bo'lishi muhimdir. Qolaversa, ularning "Tadbirkorlik asoslari", "Texnologiya", "Amaliy san'at", huquq va matematika fanlarining pedagoglari bilan o'zaro hamkorligi kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradi.

Jahon ta'limga tizimi amaliyotida iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega shaxsni tarbiyalash muammosi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida dolzarblashib, iqtisodiy ta'limming sifati va samaradorligi puxta asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish hisobiga ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. O'quv dasturlarining mobil xarakterga egaligi ularning mazmuniga milliy jamiyatlarda kuzatilayotgan keskin ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarni tavsiflovchi nazariy va amaliy bilimlarni izchil singdirib borishga imkon bergan.

O'zbekistonda uzlusiz ta'larning turli bosqichlarida iqtisodiy ta'limga o'qitish joriy qilingan. Biroq, ta'limga oluvchilarning oila iqtisodiga oid kompetensiyalarga ega bo'lishiga e'tibor qaratilmagan. Bu esa OTMda pedagogik turkum fanlari bilan "Tadbirkorlik asoslari", "Texnologiya", "Amaliy san'at", matematika hamda huquq fanlari o'rtaida o'zaro integratsiyaga muvofiq talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вяткин А.П. Психологические методы изучения экономической социализации личности в процессе обучения. Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2004. – С. 56-79.
2. Дробышева Т.В. Экономическая социализация личности: ценностный подход. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2013. – С. 17-25;
3. Kober Nancy, Rentner Diane Stark. History and Evolution of Public Education in the US / George Washington University, Center on Education Policy (CEP) 2020.
4. Abramitzky, Ran. Economics and the modern economic historian (№21636). NBER Working Paper. – Cambridge: MA (2015) <https://www.nber.org/papers/w21636>;
5. Ruth Schüler. Education Economics from a Historical Perspective // [https://www.ifo.de/DocDL/ifo-Beitraege\\_z\\_Wifo\\_78.pdf](https://www.ifo.de/DocDL/ifo-Beitraege_z_Wifo_78.pdf).
6. Blyaxman L.S. Perestroyka ekonomicheskogo mishleniya. – M.: Politizdat. 1990. – S. 24.
7. Cummings S., Taebel D. The economic socialization of children. A neo-Marxist analysis // J. Social problems. 1978. Vol. 26 (2). – pp. 198-210;
8. Stacey B.G. Economic socialization in the pre-adult years / B.G.Stacey // British Journal of Social Psychology. – London: 1982. 21 (2). – pp. 159-173.
9. Semya G.V. Ekonomicheskaya sosializatsiya detey i podrostov: periodizatsiya i rezul'taty // Shkolnyy ekonomicheskiy журнал. – M.: 1998. - №. 5. – S. 26
10. Stacey B.G. Economic socialization in the pre) adult years // British Journal of Social Psychology. – London: 1982. - № 2. – p. 21.
11. Eshmurodova G.X. O'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish mazmuni (VIII-IX sinflar misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2009. – 17-b.
12. Nabiiev G'.A. O'smir-o'quvchilarni iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishga tayyorlashning innovasion texnologiyalari (sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni misolida): ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. (PhD) ... dis. – Namangan: 2021. – 23-b.